

O'ZBEKISTON SOLIQ QONUNCHILIGIDAGI YANGILIKLAR

To'ychiyev Abdurahmon G'ofurovich

TDIU AF kafedra mudiri, iqtisodiyot
fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
abdurahmon69@inbox.ru

Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqlar
Tortish” yo'nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi har tomonlama rivojlanib, taraqqiyot sari ildam qadamlarni qo'yib, bormoqda. Soliq qonunchiligiga kiritilayotgan yangiliklar va o'zgarishlar ham, barchaning diqqat markazida bo'lib, borayotgan o'zgarishlar sirasiga kiradi. Nafaqat soliq tizimi balki, undagi ichki va tashqi muhitni o'zgartirish hamda ilg'or g'oyalarni oldinga surish kerak ekanligi zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tezisdagi soliq qonunchiligidagi ijobiy o'zgarishlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: soliq qonunchiligi, soliq tizimi, jismoniy shaxslar, Soliq kodeksi, islohotlar, soliq stavkalari, soliq siyosati.

Ma'lumki, soliqlar davlatning asosiy iqtisodiy tayanchi bo'lib, u davlat rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Soliqlarning maqsadi va majburiyati davlat budjetini to'ldirish bilan cheklanib qolmaydi balki, iqtisodiy barqarorlikni saqlash, byudjet mablag'larini adolatli taqsimlash va ijtimoiy tenglikni ta'minlash kabi keng qamrovli vazifalarni o'z ichiga oladi. Soliqlar davlatning o'z fuqarolariga xizmatlar ko'rsatish, infratuzilma qurish, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa funksiyalarini bajarish imkoniyatini beradi. Demak, soliq davlatning davlat bo'lib shakllanishida eng asosiy bo'g'in hisoblanar ekan, binobarin soliq qonunchiligiga kiritilayotgan ijobiy o'zgarishlar davlat va jamiyat uchun juda muhim hisoblanadi.

Joriy yilda O'zbekiston soliq qonunchiligida, bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Ular orasidan eng muhimi mol-mulk solig'i tizimiga kiritilgan o'zgarishlardir. Ma'lumki, Soliq kodeksining 434-moddasi 2-qismiga ko'p kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmasligi, bundan tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari mustasno ekan kiritildi.[1] Bu albatta, ijobiy qadam bo'ldi. Shuningdek, mol-mulk solig'ini undirish tartibiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi hozirgi daraja — 1,5% miqdorida saqlanib qolindi. [2] Shu bilan birga, yuridik shaxslarga tegishli obyektlarning soliq solinadigan bazasi 2024-yil uchun tasdiqlangan 1 kv.metr uchun eng kam

bazadan past bo'lishi mumkin emasligi ta'kidlandi. To'lovlar hududlarga qarab quyidagicha:

- Toshkent shahrida — 3 mln so'm;
- Nukus va viloyat markazlarida — 2 mln so'm;
- boshqa shaharlar va qishloq joylarda — 1,2 mln so'm belgilandi.[3]

Nafaqat, mol-mulk solig'i balki, yer solig'i siyosati hamda tizimida ham qator ijobiy o'zgarishlar qo'shildi. Xususan, Soliq kodeksining 434-moddasiga aniqlik kiritilib, unga ko'ra ko'p kvartirali uylar egallagan va ko'p kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obekti bo'lmasligi belgilab qo'yildi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda imzolangan “Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-6121-son farmonida “ko'chmas mulk (binolar, inshootlar va yer uchastkalari) ob'ektlarini bozor qiymatiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk solig'i va yer solig'ini hisoblash tizimi joriy etilgani” hozirda o'z natijalarini bermoqda. [4]

Biroq, har sohaning ham muammoli yechim talab qiladigan dolzarb masalalari bo'lgani kabi soliq sohasining ham ma'lum bir yo'nalishlarida muammoli holatlari ko'zga tashlanadi. Masalan, ma'lum bir izlanishlar natijasida, yer solig'i va mol-mulk soliqlarining ba'zi bir moddalari o'zgartirishlarni talab qilmoqda.

2024-yilda qabul qilingan Prezident qaroriga ko'ra, tadbirkorlarga subsidiyalar va soliq imtiyozlari reyting darajasiga bog'liq holda taqdim etiladi. Reyting darajasi yuqori bo'lgan tadbirkorlar soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilinadi. Bu qaror tadbirkorlarning faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan va soliq yengilliklari ularning reytingiga ko'ra belgilanadi.[5] Ushbu, Prezident qarorida quyidagi, o'zgarishlarni qo'shimcha qilish soliq qonunchiligidagi bir qator masalalarga yechim sifatida xizmat qiladi. Bu esa tadbirkorlarga katta imkoniyatlarni beradi. Bizga ma'lumki, yangi boshlangan tadbirkorlik subyektlariga, ayniqsa kichik va o'rta biznesga soliq bo'yicha imtiyozlar beriladi, ammo umumiy 3 yillik soliqdan to'liq ozod qilish har bir tadbirkor uchun amalda emas. Balki, tadbirkorlik faoliyatining turi, joylashuvi (masalan, maxsus iqtisodiy zonalar) yoki davlat dasturlariga qatnashuviga bog'liq bo'ladi.[6] **“Soliqning tabaqalashgan holati”**ni joriy etish va soliq imtiyozini moliyaviy holati yuqori bo'lib, shakllanayotgan tadbirkorlik faoliyatlariga 1 yillik imtiyoz va qolgan 3 yilda bosqichma-bosqich soliq stavkalarini, oshirib borish usulini qo'llash. Umumiy hisobda, 4 yildan so'ng esa, olayotgan foydasiga nisbatan soliq solish tartibini, joriy etish. Va umumiy balansi nisbatan pastroq, kiritilgan sarmoyasi ichki aylanmasini, zo'rg'a ta'minlab o'sish ko'rsatkichi, maksimumdan past bo'lgan, tadbirkorlik faoliyatlariga esa, 3 yil muddatda soliqdan ozod etish va o'sish suratiga qarab, belgilangan muddatdan so'ng bosqichma-bosqich, yer solig'i stavkalarini oshirib borish. Bu esa, iqtisodiyotning rivojlanishiga balki,

soliq tizimida ham, ma'lum darajada, o'zgarishlar samarasini beradi. “Soliqning tabaqalashgan holati”ni joriy qilish, bunga asosiy sabab sifatida, tadbirkorlarning yillik va oylik moliyaviy holatlari va favqulodda yuzaga keladigan vaziyatlar, tabaqalashgan soliq tizimining ne chog'lik ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, mol-mulk solig'i – bu jismoniy va yuridik shaxslar mulkida bo'lgan, ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk turlaridan olinadigan soliq turi hisoblanadi. Bu soliq turiga ham quyidagi o'zgartirishlarni qo'llash qonunchilikda ijobiy ko'rsatkichlarga olib keladi:

- Ushbu soliq turidagi, ma'lum bir kamchiliklarni o'rgangan holda, berilgan yechim va takliflar bilan yaqindan tanishamiz. Misol uchun mol-mulk solig'ining, aholi daromadlari bilan to'g'ri proporsiyada bo'lmasligi. Bu nima degani? Ya'ni bir xil mol-mulkka ega, lekin turli daromadga ega bo'lgan shaxslarning bir xil miqdorda soliq to'lashi nisbatan, adolatsiz soliq stavkalarining belgilanganidan dalolat beradi. Mazkur muammoni yechimi sifatida, **“Daromadlarga mos soliq tizimi”** taklifini keltirib o'tilgan. Albatta, bu tizim soliq qonunchiligiga juda katta burilish olib kelishi mumkin. Ushbu tizimdan asosiy ko'zlangan maqsad – aholining moliyaviy holatini inobatga olgan holda progressiv soliq tizimini joriy qilishdir. Bunda mulk qiymati va mulkdorning oylik va yillik daromadlari o'rganilgan holda, tabaqalashgan soliq stavkalarini joriy qilish kerak ekanligini anglatadi. Natijada past daromadli shaxslar kamroq soliq to'laydi va ma'lum darajada yashash turmush tarzi ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi hamda mamlakatda muayyan darajada kambag'likni qisqartirishga erishilishi ham mumkin. Bu tizimni barcha aholi qatlamlariga qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, pensionerlar o'rtasida ham olayotgan pensiyalari tabaqalashgan bo'ladi. Lekin ularning ko'p qismi bir xil miqdorda soliq to'lashadi. Bu esa ma'lum darajada adolatsizlikka va kamroq nafaqa oladigan shaxslarga moliyaviy taqchillikni keltirib chiqaradi. So'ngra, ularning yashash tarzi, ma'lum darajada yamonlashadi. Va ular davlat tomonidan turli moliyaviy yordamlar olishga majbur bo'lishadi. Keyin esa, kambag'lik shu yo'sinda, ortishiga olib keladi. Nafaqat pensionerlar balki, boshqa toifadagi shaxslarning ham, ma'lum bir darajada turmush tarzlarining yamonlashuviga olib keladi. Shu o'rinda yana bir misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak: ko'p farzandlik oilalar, bularning ham oylik va yillik daromadlarini hisobga olgan holda yuqorida keltirib, o'tilgan soliq siyosatini, yuritish salmoqli yutuqlar va o'zgarishlarga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlangan, masala va muammolarning asosiy sababi sifatida, daromadlarning tengsizligi, ijtimoiy adolatsizlik va aholi daromadlarini hisobga olmaslik “ Daromadlarga mos soliq tizimi”ni joriy qilishga, ma'lum darajada turtki bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning soliq qonunchiligida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Agar, bu islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, mamlakat iqtisodiyoti yanada mustahkamlanadi

va raqobatbardosh bo'ladi. Biroq, ularni amalga oshirish jarayonida zarur ehtiyoj choralari ko'rilishi, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatlarini yanada kengaytirishi uchun keng ko'lamda yangi taklif qilingan tizimlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Yangi tahrirdagi “O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” 01.01.2020 - <https://lex.uz/ru/docs/-4674902>.
2. “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-891. 28.12.2023 - <https://lex.uz/docs/-6718864>.
3. “O'zbekistonda mol-mulk solig'i to'lovlari oshirildi” <https://www.spot.uz/oz/2023/12/16/property-tax/>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda imzolangan “Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-6121-son Farmoni - <https://lex.uz/docs/-5138323>.
5. Prezident qarori asosida 2024-yil 1-fevraldan boshlab “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” tashkil etildi. <https://daryo.uz/2024/02/01/ozbekistonda-tadbirkorlik-subyektlari-uchun-reyting-joriy-etildi-u-qanday-ishlaydi?utm=tg-uz>.
6. Prezident qaroriga ko'ra tadbirkorlik subyektlariga, ayniqsa kichik va o'rta biznesga soliq bo'yicha imtiyozlar beriladi, <http://www.press-service.uz/>.

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ
В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Убайдуллаева Азиза Хамракул кизи
главный специалист Институт бюджетно-налоговых
научных исследований при Министерстве
экономики и финансов Республики Узбекистан
Ортикова Нигина Алишер кизи
главный специалист
Институт бюджетно-налоговых научных
исследований при Министерстве
экономики и финансов Республики Узбекистан

Акцизный налог представляет собой разновидность косвенных налогов на товары преимущественно массового потребления, включающийся в цену продукции и перекладывается на конечного потребителя [1]. В 1666 г. французский экономист Ф. Дэмзон обосновал, что акцизный налог способен один принести казне столько же и даже больше, чем все другие налоги [2]. Основной причиной широкого распространения акцизного налога являются высокие фискальные выгоды и скорость их получения.